

Chet tilidan yozma ish 1-bo'lim 1-topshiriq baholash mezonlari

Ball darajasi	Tavsif
5 (B2 yoki undan yuqori)	Topshiriqqa berilgan javob B1 darajasidan yuqori saviyada
4 (Yuqori B1)	Topshiriqqa berilgan javob mavzu doirasida bo'lib, quyidagi xususiyatlarni o'zida namoyon etadi: • Topshiriqda berilgan talablarning ko'p qismini qamrab oladi. • Uslub talablaridan ko'pincha chetga chiqishlar kuzatiladi. • Oddiy gramatik strukturalardan xatosiz foydalanadi, lekin murakkab strukturalarni qo'llashda xatoliklar yuzaga keladi. • Punktuatsiya va imlo qoidalarini asosan to'g'ri qo'llay oladi. Xatolar tushunishga to'sqinlik qilmaydi. • So'z boyligi topshiriqqa javob berish uchun yetarli. • Oddiy bog'lovchi vositalardan foydalanib, gaplarni bir-biriga bog'lay oladi va yaxlit matn shakllantira oladi.
3 (Quyi B1)	Topshiriqqa berilgan javob qisman mavzu doirasida bo'lib, quyidagi xususiyatlarni o'zida namoyon etadi: • Topshiriqda berilgan talablarning eng kamida birini qamrab oladi. • Uslub talablaridan ko'pincha chetga chiqishlar kuzatiladi. • Oddiy gramatik strukturalardan xatosiz foydalanadi, lekin murakkab strukturalarni qo'llashda xatoliklar yuzaga keladi. • Punktuatsiya va imlo qoidalarini asosan to'g'ri qo'llay oladi. Xatolar tushunmovchilikka yo'l ochmaydi. • So'z boyligi topshiriqqa javob berish uchun yetarli. • Oddiy bog'lovchi vositalardan foydalanib, gaplarni bir-biriga bog'lay oladi va matn shakllantira oladi.
2 (A2)	Topshiriqqa berilgan javob qisman mavzu doirasida bo'lib, quyidagi xususiyatlarni o'zida namoyon etadi: • Topshiriqda berilgan talablarning faqatgina bir qismini qamrab oladi. • Sodda gaplarni oddiy gramatik strukturalar vositasida ko'plab xatoliklar bilan tuzadi va xatoliklar ko'pincha tushunishga to'sqinlik qiladi. • Punktuatsiya va imlo qoidalarini qo'llashda sezilarli darajada xatoliklar yuzaga keladi. • So'z boyligi topshiriqqa javob berish uchun yetarli emas. So'zlarni noto'g'ri qo'llash ko'zga tashlanadi va gap mazmunini tushunishga to'sqinlik qiladi. • Javob yaxlit matn sifatida tashkil etilmagan bo'lishi mumkin. • Javobning uzunligi talab etilgan hajmning 50 foizi yoki undan kamroq bo'lishi mumkin

1 (A1 yoki undan past)	Topshiriqqa berilgan javob: • A2 saviyasidan past bo'lsa, • Ona tilidan sezilarli daraja foydalangan bo'lsa • Ma'nosiz gaplardan tuzilgan bo'lsa, • Butunlay mavzudan tashqari bo'lsa (<i>masalan: yodlab kirilgan, ko'chirilgan, taxminiy javob</i>)
0	Topshiriqqa javob yozilmagan bo'lsa

Chet tilidan yozma ish 1-bo'lim 2-topshiriq baholash mezonlari

Ball darajasi	Tavsif
5 (C1 yoki undan yuqori)	Javob mavzuga to'liq mos bo'lib, quyidagi xususiyatlarni o'zida namoyon etadi: • Topshiriqda berilgan talablarning barchasini qamrab oladi. • Uslub talablariga to'liq mos keladi. • Xilma-xil murakkab grammatik strukturalardan ko'plab foydalanadi. Kichik va ahamiyatsiz xatolar bo'lishi mumkin, lekin ular tushunishga to'sqinlik qilmaydi. • Punktatsiya va imlo qoidalarini xatolarsiz qo'llaydi. • Topshiriqda berilgan mavzuni muhokama qilishda keng qamrovli va xilma-xil lug'at boyligidan foydalanadi. Ba'zan biroz noo'rin yoki mavzuga ozroq mos kelmaydigan so'z qo'llash holati kuzatilishi mumkin. • G'oyalar orasidagi bog'lanishni ko'rsatishda xilma-xil va noyob bog'lovchi vositalarni ustalik bilan qo'llaydi.
4 (Yuqori B2)	Javob mavzuga mos bo'lib, quyidagi xususiyatlarni o'zida namoyon etadi: • Topshiriqda berilgan talablarning barchasini qamrab oladi. • Uslub talablariga to'liq mos keladi. • Bir qancha murakkab grammatik strukturalardan to'g'ri foydalana oladi. Xatolar noto'g'ri tushunishga olib kelmaydi. • Kam sonli punktatsiya va imlo xatolari bo'lishi mumkin. Lekin ular tushunishga to'sqinlik qilmaydi. • So'z boyligi topshiriqda berilgan mavzuni muhokama qilish uchun yetarli. Noo'rin so'z tanlash holatlari kuzatiladi, lekin ular noto'g'ri tushunishga olib kelmaydi. • G'oyalar orasidagi bog'lanishni ko'rsatishda bir qancha bog'lovchi vositalarni qo'llaydi.
3 (Quyi B2)	Topshiriqqa berilgan javob qisman mavzu doirasida bo'lib, quyidagi xususiyatlarni o'zida namoyon etadi: • Topshiriqda berilgan talablarning ko'p qismini qamrab oladi. • Uslub talablariga to'liq mos kelmasligi mumkin. • Bir qancha murakkab grammatik strukturalardan to'g'ri foydalana oladi. Xatolar noto'g'ri tushunishga olib kelmaydi. • Kam sonli punktatsiya va imlo xatolari bo'lishi mumkin. Lekin ular

	tushunishga to'sqinlik qilmaydi. • So'z boyligi topshiriqda berilgan mavzuni muhokama qilish uchun yetarli. Noo'rin so'z tanlash holatlari kuzatiladi, lekin ular noto'g'ri tushunishga olib kelmaydi. • G'oyalar orasidagi bog'lanishni ko'rsatishda bir qancha bog'lovchi vositalarni qo'llaydi.
2 (B1)	Topshiriqqa berilgan javob qisman mavzu doirasida bo'lib, quyidagi xususiyatlarni o'zida namoyon etadi: • Topshiriqda berilgan talablarning faqatgina bir qismini qamrab oladi. • Uslub talablaridan ko'pincha chetga chiqishlar kuzatiladi. • Oddiy grammatik strukturalardan xatosiz foydalanadi, lekin murakkab strukturalarni qo'llashda xatoliklar yuzaga keladi. • Punktuatsiya va imlo qoidalarini asosan to'g'ri qo'llay oladi. Xatolar tushunishga to'sqinlik qilmaydi. • So'z boyligi topshiriqqa javob berish uchun yetarli. • Oddiy bog'lovchi vositalardan foydalanib, gaplarni bir-biriga bog'lay oladi va yaxlit matn shakllantira oladi. • Javobning uzunligi talab etilgan hajmdan kam bo'lishi mumkin (25-60 ta so'z)
1 (A2)	Topshiriqqa berilgan javob qisman mavzu doirasida bo'lib, quyidagi xususiyatlarni o'zida namoyon etadi: • Topshiriqda berilgan talablarning faqatgina bir qismini qamrab oladi. • Uslub talablariga umuman rioya etilmaydi. • Sodda gaplarni oddiy grammatik strukturalar vositasida ko'plab xatoliklar bilan tuzadi va xatoliklar ko'pincha tushunishga to'sqinlik qiladi. • Punktuatsiya va imlo qoidalarini qo'llashda sezilarli darajada xatoliklar yuzaga keladi. • So'z boyligi topshiriqqa javob berish uchun yetarli emas. So'zlarni noto'g'ri qo'llash ko'zga tashlanadi va gap mazmunini tushunishga to'sqinlik qiladi. • Javob yaxlit matn sifatida tashkil etilmagan bo'lishi mumkin. • Javobning uzunligi talab etilgan hajmdan kam bo'lishi mumkin (24 ta so'z yoki undan kam)
0	Topshiriqqa berilgan javob: • A2 saviyasidan past bo'lsa, • Ma'nosiz gaplardan tuzilgan bo'lsa (bir nechta so'zlardan tashkil topgan bo'lsa), • Butunlay mavzudan tashqari bo'lsa (<i>masalan: yodlab kirilgan, ko'chirilgan, taxminiy javob</i>) • Ona tilidan sezilarli daraja foydalangan bo'lsa, • Topshiriqqa javob yozilmagan bo'lsa (javob varog'i bo'sh bo'lsa)

Chet tilidan yozma ish 2-bo'lim baholash mezonlari

Ball darajasi	Tavsif
6 (C2)	Topshiriqqa berilgan javob C1 darajasidan yuqori saviyada
5 (C1)	Topshiriqqa berilgan javob quyidagi xususiyatlarni o'zida namoyon etadi: • O'z qarashlarini aniq va ravon bayon qilib bera oladi. Savol mavzuga muvofiq keluvchi argumentlar bilan to'liq va izchil yoritib beriladi. • Uslub talablariga to'liq mos keladi. (Topshiriq shartidan kelib chiqib publitsistik\ilmiy-ommabop uslub) • Xilma-xil murakkab grammatik strukturalardan ko'plab foydalanadi. Kichik va ahamiyatsiz xatolar bo'lishi mumkin, lekin ular tushunishga to'sqinlik qilmaydi. • Punktatsiya va imlo qoidalarini xatolarsiz qo'llaydi. • Topshiriqda berilgan mavzuni muhokama qilishda keng qamrovli va xilma-xil lug'at boyligidan foydalanadi. Ba'zan biroz noo'rin yoki mavzuga ozroq mos kelmaydigan so'z qo'llash holati kuzatilishi mumkin. • Post yoki maqola izchil va ravon fikrlarga ega bo'lib, paragraf va matn tuzish qoidalariga to'liq rioya etiladi, xilma-xil va noyob bog'lovchi vositalardan ustalik bilan foydalaniladi.
4 (Yuqori B2)	Topshiriqqa berilgan javob quyidagi xususiyatlarni o'zida namoyon etadi: • O'z qarashini aniq va ravon bayon qilib bera oladi. Savolga aniq bir pozitsiya va mavzuga muvofiq keluvchi argumentlar bilan javob beriladi, lekin ba'zan mavzudan chetga chiqishlar mavjud. • Uslub talablariga to'liq mos bo'ladi. • Bir qancha murakkab grammatik strukturalardan to'g'ri foydalana oladi. Xatolar noto'g'ri tushunishga olib kelmaydi. • Kam sonli punktatsiya va imlo xatolari bo'lishi mumkin. Lekin ular tushunishga to'sqinlik qilmaydi. • So'z boyligi topshiriqda berilgan mavzuni muhokama qilish uchun yetarli. Noo'rin so'z tanlash holatlari kuzatiladi, lekin ular noto'g'ri tushunishga olib kelmaydi. • Mantiqiy izchillik va bog'lovchi vositalar mavjud, paragraf va matn tuzish qoidalariga rioya etiladi.
3 (Quyi B2)	Topshiriqqa berilgan javob quyidagi xususiyatlarni o'zida namoyon etadi: • Javob topshiriqqa asosan mos bo'ladi, lekin o'z qarashini ochib berishda kamchilik bo'lishi mumkin yoki mavzudan chiqishlar kuzatiladi. • Uslub talablariga to'liq mos kelmasligi mumkin. • Bir qancha murakkab grammatik strukturalardan to'g'ri foydalana oladi. Xatolar noto'g'ri tushunishga olib kelmaydi. • Kam sonli punktatsiya va imlo xatolari bo'lishi mumkin. Lekin ular

	tushunishga to'sqinlik qilmaydi. • So'z boyligi topshiriqda berilgan mavzuni muhokama qilish uchun yetarli. Noo'rin so'z tanlash holatlari kuzatiladi, lekin ular noto'g'ri tushunishga olib kelmaydi. • Paragraf va matn tuzish qoidalariga rioya etiladi. Lekin bog'lovchi vositalar noaniq va / yoki noto'g'ri qo'llaniladi. • Javob to'liq tugallanmagan bo'lishi mumkin.
2 (B1)	Topshiriqqa berilgan javob quyidagi xususiyatlarni o'zida namoyon etadi: • Javob topshiriqqa asosan mos bo'ladi, lekin o'z qarashini ochib berishda kamchilik bo'lishi mumkin va mavzudan chiqishlar kuzatiladi. • Uslub talablaridan ko'pincha chetga chiqishlar kuzatiladi. • Oddiy grammatik strukturalardan xatosiz foydalanadi, lekin murakkab strukturalarni qo'llashda xatoliklar yuzaga keladi. • Punktuatsiya va imlo qoidalarini asosan to'g'ri qo'llay oladi. Xatolar tushunishga to'sqinlik qilmaydi. • So'z boyligi topshiriqqa javob berish uchun yetarli. • Oddiy bog'lovchi vositalardan foydalanib, gaplarni bir-biriga bog'lay oladi va yaxlit matn shakllantira oladi. • Javobning uzunligi talab etilgan hajmdan kam bo'lishi mumkin (38-90 ta so'z)
1 (A2)	Topshiriqqa berilgan javob quyidagi xususiyatlarni o'zida namoyon etadi: • Mavzuga qisman mos bo'ladi, fikrlar har doim ham aniq emas yoki qisman mavzudan tashqari. • Uslub talablariga rioya etilmaydi. • Sodda gaplarni oddiy grammatik strukturalar vositasida ko'plab xatoliklar bilan tuzadi va xatoliklar ko'pincha tushunishga to'sqinlik qiladi. • Punktuatsiya va imlo qoidalarini qo'llashda sezilarli darajada xatoliklar yuzaga keladi. • So'z boyligi topshiriqqa javob berish uchun yetarli emas. So'zlarni noto'g'ri qo'llash ko'zga tashlanadi va gap mazmunini tushunishga to'sqinlik qiladi. • Javob yaxlit matn sifatida tashkil etilmagan bo'lishi mumkin. • Javobning uzunligi talab etilgan hajmdan kam bo'lishi mumkin (37 ta so'z yoki undan kam)
0	Topshiriqqa berilgan javob: • A2 saviyasidan past bo'lsa, • Ma'nosiz gaplardan tuzilgan bo'lsa (bir nechta so'zlardan tashkil topgan bo'lsa), • Butunlay mavzudan tashqari bo'lsa (<i>masalan: yodlab kirilgan, ko'chirilgan, taxminiy javob</i>) • Ona tilidan sezilarli daraja foydalangan bo'lsa, • Topshiriqqa javob yozilmagan bo'lsa (javob varog'i bo'sh bo'lsa)